

1-MAVZU
SENTYABR

“MUSTAQILLIK VA O‘ZBEKISTON YO‘LI”

1-HAFTA MASHG‘ULOTI

MUSTAQILLIK TUSHUNCHASI: SHAXSIY, OILAVIY VA DAVLAT
DARAJALARI

Mashg‘ulot maqsadi: o‘quvchilarda mustaqillik tushunchasining shaxsiy hayot, oila va davlat miqyosidagi mazmunini anglatish, mustaqillikning erkinlik, mas‘uliyat va burch bilan bog‘liqligini tushuntirish hamda Vatanga daxldorlik tuyg‘usini shakllantirish.

Metodikalar: suhbat, muhokama, savol-javob, ijodiy topshiriq

Asosiy tushunchalar: mustaqillik, erkinlik, mas‘uliyat, huquq, burch, shaxs, oila, davlat, Vatan.

DARS JARAYONI

Kirish

O‘qituvchi mashg‘ulotni savol-javob asosida boshlaydi: “Mustaqil inson deganda kimni tushunasiz?”, “Oila mustaqil bo‘lishi uchun nimalar kerak?”, “Davlat mustaqilligi nimada namoyon bo‘ladi?”. Ushbu savollar orqali o‘quvchilarning mustaqillik haqidagi dastlabki tasavvurlari aniqlanadi.

Asosiy qism

Mustaqillik tushunchasi shaxs, oila va davlat darajasida tahlil qilinadi.

1 Birinchi daraja – shaxsiy mustaqillik. — Insonning o‘z hayoti, o‘z qarorlari va o‘z kelajagi uchun mas‘ul bo‘lishi tushuntiriladi. Shaxsiy mustaqillik bilim olish, to‘g‘ri qaror qabul qilish, o‘z xatti-harakatlari uchun javob berish, o‘z fikriga ega bo‘lish orqali namoyon bo‘ladi.

2 Ikkinchi daraja – oilaviy mustaqillik. — Oilada mustaqillik oila a‘zolarining o‘zaro hurmat, hamjihatlik va mas‘uliyat asosida yashashi, oilaviy qadriyatlarni saqlashi hamda o‘z hayotiga oid qarorlarni ongli qabul qilishi bilan bog‘liq.

3 Uchinchi daraja – davlat mustaqilligi. — Davlat mustaqilligi mamlakatning o'z hududi, xalqi, tili, ramzlari, qonunlari va boshqaruv tizimiga ega bo'lishi, o'z taraqqiyot yo'lini mustaqil belgilashi bilan ifodalanadi.

Xulosa. O'qituvchi xulosa sifatida mustaqillikning barcha darajalarida erkinlik va mas'uliyat bir-biri bilan uzviy bog'liq ekanini ta'kidlaydi. Mustaqil inson o'z harakati uchun javob beradi, mustaqil oila qadriyatlarini asraydi, mustaqil davlat esa xalqining tinchligi, taraqqiyoti va kelajagi uchun mas'ul bo'ladi.

MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1-4-SINFLAR Vatan nima? O'z uyingiz va maktabingizni nima uchun yaxshi ko'rasiz? Mustaqil inson qanday bo'ladi?

5-7-SINFLAR Mustaqil inson qanday fazilatlarga ega bo'lishi kerak? Oilada mas'uliyat nimalarda ko'rinadi? Davlat mustaqilligi nima uchun muhim?

8-9-SINFLAR Erkinlik va mas'uliyat o'rtasida qanday bog'liqlik bor? Mustaqil davlatning asosiy belgilari nimalardan iborat?

10-11-SINFLAR Mustaqillik shaxs va jamiyat rivojiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

AMALIY TOPSHIRIQ

1-4-SINFLAR "Mening Vatanim" mavzusida rasm chizadilar.

5-7-SINFLAR "Mustaqilmen, chunki..." mavzusida qisqa fikr yozadilar.

8-9-SINFLAR Shaxsiy, oilaviy va davlat mustaqilligini taqqoslovchi jadval tuzadilar.

10-11-SINFLAR Mustaqillik shaxs, jamiyat va davlat taraqqiyotiga qanday ta'sir ko'rsatadi? Mustaqillikni saqlash va mustahkamlashda yoshlarning o'rni qanday?